

AMIR TEMUR DAVRIDA ILMU-FAN VA MA'NAVIY HAYOT RIVOJI

Nurboeva Habiba Botirovna,

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Pedagogika, psixologiya va tillar kafedrası o'qituvchisi

E-mail: nurboevahabibaxon@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarda milliy qadriyatlarni shakllantirishning afzalliklari haqida soʻz yuritilgan. Qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga oʻtkazuvchi qudratli omildir. Tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, har bir jamiyat, davlat oʻzining milliy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib taraqqiy etmagan.

Kalit soʻzlar: pedagogika, milliy qadriyatlar, innovatsiya, ma'naviyat, ta'lim, ma'naviy qadriyatlar, jamiyat.

Аннотация

В этой статье рассматриваются преимущества формирования национальных ценностей у студентов. Ценности-основа развития общества, мощный фактор, передающий из поколения в поколение успехи, достигнутые в историческом развитии нации. Глядя на этапы исторического развития, мы видим, что не каждое общество, государство развивалось без развития и укрепления своих национальных ценностей.

Ключевые слова: педагогика, национальные ценности, инновации, духовность, образование, духовные ценности, общество.

Annotation

This article talks about the benefits of forming national values in students. Values are the basis of the development of society, a powerful factor that transfers the achievements of the nation in its historical development from generation to generation. Looking at the stages of historical development, not every society, state has advanced without developing and strengthening its national values

Keywords: pedagogy, national values, innovations, spirituality, education, spiritual values, society

Oʻzligini anglashga bel bogʻlagan har bir xalq va millat avvalo buyuk ajdodlari, siyosiy, harbiy arboblari va ulugʻ allomalarining mamlakat, qolaversa, jahon tarixida tutgan oʻrni,

xizmatlarini e'zozlashni, ular qoldirgan merosdan bahramand bo'lishni o'rniga qo'yib ado etadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodga o'z vatanini har jihatdan, chunonchi, siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ma'naviy – ruhiy himoya qila oladigan salohiyatni egallashi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish bugungi kunning asosiy vazifalaridandir. Zero, ma'naviyatimiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz sohasidagi vazifalar ham shuni taqozo etmoqda. “Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon – e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat.”¹

Mana hukumatimiz tomonidan bugungi yosh avlod oldiga qo'yilayotgan o'ta muhim va dolzarb vazifa. Buning uchun esa har bir O'zbekiston fuqarosi nafaqat kundan – kunga rivojlanib borayotgan hozirgi zamon dunyoviy ilmlarini, balki o'tmishda o'tgan buyuk ajdodlar hayoti va faoliyatini mukammal bilishlari shu kunning asosiy talabi hisoblanadi. O'zbek xalqi tarixida o'tgan buyuk shaxslar, ayniqsa, Amir Temurning hayoti va faoliyati, u qoldirgan ma'naviy meros bunda asosiy mezon bo'la oladi. Avvalo uning har bir insoniy fazilati, ya'ni har qanday mushkul siyosiy, harbiy, diplomatik vaziyatlardan chiqa olish iqtidori, jasorati, mardligi, o'z vatani uchun jonini fido etishi, zehnu zakovati, temirdek irodaviy xususiyatlari bugungi yosh avlodlar uchun ibrat, hayot maktabi bo'lib qolishi lozim. Hozirgi kunda yosh avlod uni qanchalar ko'p o'rgansa, undan shunchalik saboq oladi, ma'naviy boyligi osha boradi. Yoshlar ongiga singdirishimiz lozim bo'lgan madaniyat va ma'naviyat Amir Temur davrida yuksak darajada rivojlanganki, buni o'rganishni va yoshlar ongiga singdirishni bugungi kunda davr taqozo etmoqda.

Buyuk Sohibqiron davri madaniyati va ma'naviyati ikki muhim omil asosida amalga oshirilganligi bir necha adabiyotlarda va tarixiy manbalarda tahlil etilib, izohlab berilgan². Manbalarga tayanib izoh beradigan bo'lsak, birinchi omil shu narsada namoyon bo'ladiki, buyuk Amir Temur ilm – fan, madaniyat, san'at, xalq ma'naviyati yuksalishiga o'zini butun jahonga ko'z – ko'z qilish yoki xo'jako'rsinga emas, o'zi yashagan zamonasining eng ilg'or g'oyasi bo'lmish – Naqshbandiya tariqati g'oyalari butkul tayanadi. Chunki, Buyuk Temur saltanatini boshqarish qonun qoidalari ana shu g'oya – Naqshbandiya tariqati g'oyalari bilan yo'g'rilgan va unga asoslangan edi. Hatto, ushbu g'oyalarning amaliy mahsuli sifatida Buyuk Sohibqironning o'z davlatini mustahkam saqlash va uni boshqarishda qo'llagan mashhur “Temur tuzuklari” yaratildi. Bu bilan esa Buyuk Sohibqiron o'zi boshqargan malakat fuqarolarini Naqshbandiya tariqati mafkurasi bilan qurollantirdi, ularni ilm – fanga, hunar o'rganishga, mehnat qilishga da'vat etdi. Natijada mamlakat ma'naviyati o'z – o'zidan gullab – yashnadi. Fikrimizcha, buyuk saltanat rahnamosi ilmu – ma'rifat uchun, xalq ma'naviyati

uchun barcha imkoniyatlarini yo'lga solganligi, dinu diyonatda, halol mehnatda xalqqa o'zi ibrat va namuna bo'lganligi sababli mamlakatda ma'naviyat yuksak darajada rivoj topgan. Dehqonchilik, hunarmandchilik, bunyodkorlik kabi xayrli ishlar amalga oshirilgan.

Buyuk Sohibqiron davri ma'naviy rivojining ikkinchi asosiy omili – bu Amir Temurning o'z mamlakatida madaniy rivojlanishga shaxsan o'zi bosh – qosh bo'lganligidir. Shu o'rinda Amir Temur madaniyatni, ma'naviyatni o'ta qadrllovchi shaxs ekanligini ta'kidlashimiz joiz. Buyuk Sohibqiron haqiqatda o'ta madaniyatli, dunyoqarashi, tafakkur doirasi keng, san'atni, adabiyotni juda yaxshi tushunadigan, vatanparvar va o'z xalqini sevgan shaxs edi. Buni ko'plab olimlar, tarixchilar, chet ellardan tashrif buyurgan elchilar o'z asarlarida, esdaliklarida batafsil yozib qoldirganlar. Jumladan, Alisher Navoiyning “Majolis un - nafois” asarida Buyuk Sohibqironga shunday ta'rif beriladi. “MulK shajaralarining bo'stoni va salotin gavharlarining ummoni, hoqoni Sohibqiron, ya'ni Temur Ko'ragon – agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqeda o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qig'oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor”³. Bu jumla shunday ma'noni anglatadiki, Amir Temur o'zi ijod bilan shug'ullanmasa-da, nazmni, nasrni yorqin tushunadigan, faqat hukmdor podshoh emas, ma'naviyati o'ta boy, o'z faoliyatida madaniy va ma'naviy jihatlarini namoyon qila olgan podshoh sifatida yurtga bosh bo'lganligi ta'riflanadi. Bundan tashqari, Buyuk Sohibqironning insoniy fazilatlari va ma'naviy dunyoqarashi I. Mo'minovning “Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'ri va roli” Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari tahlilida, angliyalik tadqiqotchi Xilda Xukxem xonimning tarixiy kitobida, yana ko'plab xorij tadqiqotchilarining asarlarida, ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Uning betakror insoniy fazilatlari mamlakatni boshqarishda, madaniyat va san'at tarqqiyotini, me'morchilik, hunarmandchilik rivojini ilm – fan va ijod ahlining ishlari rivojida mamlakat boshlig'i sifatida o'z ma'naviyati yuksakligidan foydalanishida qo'l keldi. Demak, shu bois ham Buyuk Sohibqiron mamlakatdagi va o'z fuqarolari orasidagi ma'naviyatga oid muammolarni o'zining shaxsan ma'nan rahbarligida hal etish usullari orqali mamlakatni boshqardi. Bu esa Amir Temur davlatida madaniyat va ma'naviyatning yuksak darajada rivojlanishiga asos bo'lgan Amir Temur davri ma'naviy taraqqiyotining ikkinchi omili edi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ikkala omilning ham Amir Temur davlati uchun nechog'li ahamiyatli ekanligini izohlaydigan bo'lsak, ular bir – biri bilan chambarchas bog'liq holda mamlakat hayotiga joriy etilganligi bois Movarounnahrda ilm – fan, madaniyat, san'at taraqqiyoti va islom dini ta'limoti rivoji qudratli temuriylar saltanati davrida jamiyat madaniyatining o'sishiga ijobiy ta'sir etdi.

Bungungi kunda butun dunyo e'tirofiga sazovor va mashhur bo'lgan buyuk siyosiy va harbiy arbob, fan – madaniyat homiysi Amir Temurning ma'nan boy hayot yo'lini o'rganish va unga sodiq bo'lish, undan saboq olish yosh avlodni jasur, aql – idrokli, Ona – Vatan sha'nini

jahonga namoyon etish, o‘z vatanini sevish, mehnatga nisbatan muhabbat ruhida tarbiya topishida xizmat qilmog‘i lozim. Zero, buyuk insoniy fazilatlariga ega bo‘lmasdan hech qanday shaxs ulug‘ ishlarni amalga oshira olmaydi. Buni yoshlarga Amir Temur shaxsiyati orqali, uning ma‘naviyati, iymonu – diyonati qanchalar pok va mukammal ekanligini e‘tirof etish orqali yetkazish bugungi kunning asosiy vazifasidir. Amir Temurdan saboq olib bugungi yosh avlod o‘z vataniga muhabbat bilan O‘zbekistonni butun olam havas qilgudek buyuk davlatga aylantirishda ularga Sohibqiron bobomizning hayot mazmuni, betakror faoliyati, ushbu faoliyatda esa, Vatan ozodligi, Vatanga muhabbat g‘oyalarining barq urganligi kabi insoniy xislatlari ibrat bo‘lishi yuksak ahamiyat kasb etadi.

“... Amir Temur bir haqiqatni yaxshi anglagan – jamiyat e‘tiqodsiz yashay olmaydi. Odamlarga din kerak, iymon kerak, ishonch kerak”. Zero, Amir Temur o‘zi yashagan jamiyatda, o‘z mamlakatida dinni ham, iymonni ham, ishonchni ham yuksak ma‘naviyat darajasiga ko‘tara oldi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. ¹Karimov I.A. “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz”. “O‘zbekiston ovozi” gazetasi. 2000-yil 23-yanvar.
2. ¹ Qarang: Nizomiddin Shomiy. “Zafarnoma”. T.: “O‘zbekiston”. 1996-yil; B. Ahmedov. “Amir Temur”. T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1995-yil; N.G‘oyipov. Amir Temur davri ma‘naviyati.
3. “G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti”. T.: 2001-yil; Q. Jo‘rayev, R. Hasanova. Sohibqiron qo‘l bergan pirlar. “Xalq so‘zi” gazetasi. 1995-yil 18-iyul.
4. ¹ Alisher Navoiy. Asarlar to‘plami. 13-tom. T.: “Fan” 1997, 163 – bet.
5. ¹ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5 – jild. T.: “O‘zbekiston”, 1997, 189 – bet.